

## KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT INSTITUTI: UNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI, PRINSIPLARI VA ASOSIY MODELLARI

**Rasulov Samandar G‘ulomjon o‘g‘li**

TDYU Davlat boshqaruvi huquqi yo‘nalishi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy ishda konstitutsiyaviy qonuniylik tushunchasi, mohiyati, asosiy belgilari hamda huquqiy davlat tizimidagi o‘rni, konstitutsiyaviy nazorat instituti: uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, prinsiplari va asosiy modellari, konstitutsiyaviy qonuniylikni ta‘minlashda konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy yo‘nalishlari kabi masalalar alohida mavzu sifatida o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** konstitutsiyaviy sud, konstitutsiyaviy qonuniylik, konstitutsiyaviy nazorat, huquqiy asoslar, huquqiy maqom, tashkiliy-huquqiy masalalar, qonuniylikni ta‘minlash.

Barcha mamlakatlarda bo‘lgani singari dunyoda mavjud qonunchilikning asosini har bir davlatning Konstitusiyasi tashkil etadi. Har bir davlatda Konstitusiya doimo ustun va yagona yuridik makonning asosini tashkil etishi belgilangan. Konstitusiya mamlakatning eng oliy qonuniyatlar va huquqiy tarmoqlarning asosi hisoblanadi. Konstitusiyada davlatdagi barcha huquqiy normalarni o‘zida mujassam etadi. Inson huquqlari, umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy adolatning prinsiplari va boshqa noralar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 3-bobi aynan Konstitusiya va qonunlarning ustunligiga bag‘ishlangan. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitusiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar. Buning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi 2021-yilda qabul qilingan qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarining so‘zsiz ustuvorligi tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil

etadi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid bo‘lishi mumkin emasligi belgilangan. Shu ma’noda Konstitusiyaga amal qimlish, jamiyatda, uning ustunligini ta’minlash muhim masala hisoblanadi. Konstitutsiyaviy nazorat instituti bu davlat organlarining barcha hujjatlari va harakatlarini Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish, shuningdek, asosiy qonun normalari buzilishining oldini olishga qaratilgan maxsus huquqiy faoliyatdir. U huquqiy davlatda "tiyib turish va muvozanat" tizimining eng muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Konstitusiya ustunligi qonuniylikning kafolatidir. Konstitusiya muhofazasi orqali nafaqat kontitusiyaviy normalar, mazmuni, balki xalqning ijtimoiy ongi va madaniyati kabi qadriyatlar ham muhofaza etiladi. Chunki aynan konstitusiya o‘zida xalq irodasi. Orzu-umidlarini mujassam etadi. Konstitusiyani muhofaza etish-konstitusiyaviy huquq va erkinliklarni ishonchli himoya qilish, davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasida o‘zaro tiyib turish hamda manfaatlar muvozanatini arpo etish, konstitusiyaviy nazoratni amalga oshirish orqali Konstitusiyaning ustunligini hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar faoliyatida jamiyat va fuqarolar oldidamas’ulligini ta’minlashga qaratilgan faoliyatdir. Shuningdek, Konstitusiyani muhofaza etish konstitusiyaga og‘ishmay amal qilishga qavratilgan chora-tadbirlar tizimidir.<sup>1</sup>

Konstitusiyani muhofaza etishning asosiy vositasi bu konstitusiyaviy nazorat hisoblanadi. Ushbu nazorat orqali qonchtitusiyaviy huquq va erkinliklar himoya qilinib, hokimiyatlar o‘rtasidagi tiyib turish va manfaatlar muovzanatini amalga oshirish, eng asosiysi Konstitusiyaning ustunligi hamda uni maxsus muhofaza qilish ta’minlanadi. Amaldagi tartibga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida belgilanganidek fuqarolar o‘zi va boshqalar bilan birgalikda bevosita yoki o‘zining vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egaligi ham ko‘rsatilgan. Huquqshunos olim A.Hoshimxonovning talqiniga ko‘ra, konstitusiyaviy nazorat-oliy yuridik kuchga ega hujjat sifatida Konstitusiyaning

---

<sup>1</sup> Abdullayeva M.M. Konstitutsiyaviy nazorat va Konstitutsiyaviy odil sudlov. Darslik. – Toshkent. “Adolat”, 2024. 22-b.

himoya qilinishi maqsadida amalga oshiriladigan sof huquqiy ekspertiza bo‘lib, unda normativ-huquqiy hujjatlar (ba‘zan sud qarorlari, oliy mansabdorlar faoliyati) konstitutsiyaga moslik jihatidan baholanadi,<sup>2</sup> deyilgan.

Konstitutsiyaviy nazorat instituti mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylikni ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy kafolatlarini amalga oshirish, shuningdek, davlatda Konstitutsiya barqarorligi va uning normalari jamiyatda to‘liq amal qilishini ta‘minlovchi mexanizm hisoblanadi. Konstitutsiyaviy nazoratni faqatgina bir organ emas qonunchilikka ko‘ra bir necha organlar ham amalga oshirish mumkin. Ayrim xorijiy davlatlarda (Fransiya, Ruminiya) Prezident ham konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiradi. Parlament tomonidan qabul qilinayotgan qonunni Prezident tomonidan Konstitutsiyaga zid deb topilishi, uni imzolamasligiya‘ni o‘zining veto huquqidan foydalanishi mumkin. Bunda ushbu qonun o‘z o‘zidan kuchga kirmaydi. Boshqa tomondan olib qaralsa, Prezident o‘sha qonunning Konstitutsiyaviyligini tekshirishni so‘rab qonunda keltirilgan maxsus vakolatli organga murojaat qilishi mumkin.

Milliy qonunchiligimizga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi talablarida keltirilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o‘z e‘tirozlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli ekani hamda respublika davlat boshqaruv organlarinining va hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini ular qonun hujjatlari ular qonun hujjatlari normalariga nomuvofiq bo‘lgan hollarda to‘xatlishi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari to‘g‘risida” gi Qonunning 26-moddasiga ko‘ra, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilangan tartibda bekor qilinishi ko‘zda tutilgan.

---

<sup>2</sup> Abdullayeva M.M. Konstitutsiyaviy nazorat va Konstitutsiyaviy odil sudlov. Darslik. – Toshkent. “Adolat”, 2024. 25-b.

Konstitutsiyaviy nazorat instituti konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, u normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish faoliyatini anglatadi. Ushbu institut orqali davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning konstitutsiyaviy asoslari baholanadi va zarur hollarda ular bekor qilinadi yoki ularning amal qilishi to'xtatiladi.<sup>3</sup>

Konstitutsiyaviy nazorat quyidagi asosiy prinsiplarga tayanadi:

qonun ustuvorligi prinsipi;

sud mustaqilligi;

oshkoralik va adolatlilik;

huquqiy aniqlik va barqarorlik.

Jahon amaliyotida konstitutsiyaviy nazoratning ikki asosiy modeli mavjud. Birinchisi, markazlashgan model bo'lib, unda konstitutsiyaviy nazorat maxsus tashkil etilgan sud organi tomonidan amalga oshiriladi. Bunga misol sifatida Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini keltirish mumkin. Ikkinchisi esa tarqoqlashgan model bo'lib, unda konstitutsiyaviy nazorat umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu model AQSh Oliy sudi faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi<sup>4</sup>

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, mamlakatimizda Konstitutsiyaviy nazorat instituti va O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy sudlov institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini konstitutsiyaviy huquq nuqtai nazaridan qiyosiy-huquqiy tahlil etish hamda tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish natijalari ilmiy-amaliy xulosalarga kelishga hamda qonunchilikni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalarni ilgari surishga asos bo'ldi. Unga ko'ra, Konstitutsiyaviy nazorat institutining asosiy maqsadi qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyatning hujjatlarida inson huquqlari va erkinliklari

---

<sup>3</sup> Cappelletti M. Judicial Review in the Contemporary World. – 1971.

<sup>4</sup> Stone Sweet A. Governing with Judges. – Oxford University Press, 2000.

ustuvorligiga oid Konstitutsiyaviy prinsipning hamda Konstitutsiyaning boshqa normalarining ro'yobga chiqarilishini ta'minlashdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi "Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonuni Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Abdullayeva M.M. Konstitutsiyaviy sudlov obyektining nazariy-huquqiy masalalari // Yuridik fanlar axborotnomasi. 2018. – №3 – B. 50–54. (12.00.00; №20)
4. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. "Adolat", 2021. 440-b.
5. Abdullayeva M.M. Konstitutsiyaviy sudlov subyekti huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlari // "Biznes va innovatsiya: huquqiy masalalar va yechimlar" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T.TDYU, 2018. – B.384-386.
6. Odilqoriyeva F.X. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy maqomi. Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor; O.T.Xusanov. – T. TDYuU, 2012